OLIY TA'LIM MUASSASASIDA PSIXOLOG XIZMATIGA TALABALAR MUNOSABATINI EMPIRIK-STATISTIK TAHLILI.

O.I.Yadgarova[1]

1. Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

Mas'ul muallif: Yadgarova Ozoda Ibragimovna, Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi.

e-mail: yadgarovaozoda26@gmail.com

Received: 25 Oktabr 2026
Accepted: 30 Oktabr 2026
Published: 04 Noyabr 2026

Copyright: © 2026 by the author(s). Licensee Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi.

Iqtibos uchun: Yadgarova, O. I. OLIY TA'LIM MUASSASASIDA PSIXOLOG XIZMATIGA TALABALAR MUNOSABATINI EMPIRIK-STATISTIK TAHLILI. / O. I. Yadgarova // Buxoro xalqaro universiteti ilmiy axborotnomasi. — 2026. — T. 11, № 1. — B. 37–41.

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muhitida talaba-yoshlar shaxsining konseptual affektiv-kognitiv tuzilmalari - emotsional intellekt komponentlari hamda shaxslararo munosabatlardagi transakt rol pozitsiyalarining o'zaro integratsiyasi empirik tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida talabalarning o'z tuyg'ularini anglash va boshqarish layoqati, shuningdek, muloqot andozalaridagi "Bola", "Voyaga yetgan" va "Ota-ona" ego-holatlarining gender hamda yosh mezonlariga ko'ra tabaqalanish qonuniyatlari o'rganilgan. Respublikamiz davlat oliy ta'lim muassasalaridan jami 484 nafar talaba-respondent ishtirok etgan tanlanma ko'rsatkichlari Mann-Uitni U-mezoni va Kruskal-Uollis H-mezoni yordamida matematik-statistik qayta ishlangan. Tahlillar natijasida talabalarning umumiy emotsional intellekti gender jihatdan gomogen xarakterga ega ekanligi, biroq faoliyat drayveri hisoblangan o'z-o'zini rag'batlantirish motivatsiyasida yigitlar statistik ishonchli ustunlikka ega ekanligi isbotlangan. Shuningdek, muloqotdagi "Bola" roli talabalikning adaptiv bosqichlariga ko'ra dinamik o'zgarishga ega ekanligi aniqlanib, talabalar shaxsiyatini shakllantirish va ularga proaktiv psixologik ko'mak ko'rsatish tizimini optimallashtirish yuzasidan konseptual xulosalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: emotsional intellekt, transakt tahlil, ego-holatlar, Mann-Uitni U-mezoni, Kruskal-Uollis H-mezoni, o'z-o'zini rag'batlantirish, talabalik davri, gender dinamika, kognitiv-affektiv muvozanat, talabalik.

ЭМПИРИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОТНОШЕНИЯ СТУДЕНТОВ К ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СЛУЖБЕ В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ УЧРЕЖДЕНИИ

Аннотация. В данной статье проведён эмпирический анализ взаимной интеграции концептуальных аффективно-когнитивных структур личности студентов в условиях высшего образования - компонентов эмоционального интеллекта и транзактных ролевых позиций в межличностных отношениях. В рамках исследования изучены способности студентов осознавать и регулировать собственные эмоции, а также закономерности дифференциации эго-состояний «Ребёнок», «Взрослый» и «Родитель» в коммуникативных моделях по гендерным и возрастным критериям. Показатели выборки, включающей в общей сложности 484 студента-респондента из государственных высших образовательных учреждений Республики Узбекистан, подвергнуты математико-статистической обработке с использованием U-критерия Манна–Уитни и H-критерия Краскела–Уоллиса. В результате анализа установлено, что общий уровень эмоционального интеллекта студентов характеризуется гендерной однородностью, однако по мотивации самопоощрения, выступающей в качестве драйвера деятельности, юноши демонстрируют статистически значимое превосходство. Кроме того, выявлено, что ролевая позиция «Ребёнок» в коммуникативном взаимодействии динамически изменяется в зависимости от адаптационных этапов студенческого периода. На основе полученных результатов сформулированы концептуальные выводы по вопросам формирования личности студентов и оптимизации системы оказания им проактивной психологической поддержки.

Ключевые слова: эмоциональный интеллект, транзактный анализ, эго-состояния, U-критерий Манна–Уитни, H-критерий Краскела–Уоллиса, самомотивация, студенческий период, гендерная динамика, когнитивно-аффективный баланс, студенчество.

EMPIRICAL AND STATISTICAL ANALYSIS OF STUDENTS' ATTITUDES TOWARD PSYCHOLOGICAL SERVICES IN A HIGHER EDUCATION INSTITUTION

Abstract. This article presents an empirical analysis of the integration of conceptual affective-cognitive structures of students' personalities in the higher education environment, particularly the components of emotional intelligence and transactional role positions in interpersonal relationships. The study examines students' abilities to recognize and regulate their own emotions, as well as the patterns of differentiation of the "Child," "Adult," and "Parent" ego states in communication patterns according to gender and age criteria. The sample, comprising a total of 484 student respondents from state

higher education institutions in the Republic of Uzbekistan, was subjected to mathematical and statistical analysis using the Mann–Whitney U test and the Kruskal–Wallis H test. The findings indicate that students' overall emotional intelligence is gender-homogeneous; however, male students demonstrate a statistically significant advantage in self-motivation, which serves as a driving force behind individual activity. Furthermore, the study reveals that the "Child" role in communication undergoes dynamic changes depending on the adaptive stages of student life. Based on the findings, conceptual conclusions are proposed regarding the development of students' personalities and the optimization of proactive psychological support systems in higher education institutions.

Keywords: emotional intelligence, transactional analysis, ego states, Mann–Whitney U test, Kruskal–Wallis H test, self-motivation, student period, gender dynamics, cognitive-affective balance, student life.

Kirish. Bugungi shiddatli globallashuv, axborotlashgan jamiyatning jadallashuvi va oliy ta'lim tizimining intensiv raqamli transformatsiyalashuvi jarayonida talaba-yoshlar sotsiumining akademik muvaffaqiyati nafaqat ularning sof kognitiv resurslari va intellektual salohiyati, balki shaxsiy-emotsional barqarorligi hamda interpersonal munosabatlar tizimining muvozanatlashganligi bilan ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri belgilanmoqda. Ta'lim platformalarining intensiv integratsiyalashuvi hamda axborot yuklamasining keskin ortishi talaba shaxsida kiber-stress, affektiv begonalashuv va kognitiv charchoq kabi destruktiv fenomenlarni keltirib chiqarmoqda. Bunday murakkab sharoitda talabalarning ichki ruhiy muvozanatini saqlash, ularning shaxsiy o‘sish drayverlarini faollashtirish zamonaviy psixologiya fani oldidagi eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta'lim islohotlari jarayonida talaba-yoshlarning psixologik salomatligini muhofaza qilish, universitetlarda psixologik xizmat ko‘rsatish tizimini xalqaro andozalar darajasiga ko‘tarish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-noyabrdagi "Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida"gi O‘RQ-989-sonli Qonuni mamlakatimiz tarixida ilk bor psixologik yordam ko‘rsatishning huquqiy asoslarini, tamoyillarini va professionallik standartlarini qonun darajasida belgilab berdi[1]. Mazkur normativ-huquqiy baza talaba shaxsining shaxsiy yetukligi, emotsional intellekti va muloqot madaniyatini optimallashtirishda bosh poydevor bo‘lib xizmat qiladi[4].

Milliy va xorijiy psixologiya maktablarida shaxsning har qanday sotsiumga moslashuv qobiliyatini (adaptatsiyasini) belgilovchi eng markaziy tuzilmalardan biri - uning emotsional intellekti va shaxslararo munosabatlardagi rol pozitsiyalaridir. Akademik E.G‘.G‘oziyev o‘z tadqiqotlarida alohida ta'kidlaganidek, talabalik davri shaxsda mustaqil fikrlash, kasbiy identiklik va subyektiv "Men" pozitsiyasi shakllanayotgan eng dinamik davr hisoblanadi[3]. Gumanistik psixologiya vakillari K.Rojers, A.Maslou hamda transakt tahlil asoschisi E.Bern konsepsiyalariga ko‘ra, subyektning xulq-atvori uning ichki ego-holatlari ya'ni "Bola", "Voyaga yetgan", "Ota-ona" hamda o‘z tuyg‘ularini anglash va boshqarish (N.Xoll) salohiyati sintezida qaror topadi[2;5;6]. Biroq, talabalik davrida ushbu affektiv-kognitiv konstruktlarning gender (jins) qutblanishi hamda yosh inqirozlari prizmasidagi konseptual integratsiyasi o‘zbek talabalari misolida hali tizimli va qiyosiy ravishda, matematik-statistik metodlar yordamida yaxlit empirik tahlilga tortilmagan. Mazkur muammoni tadqiq etish maqolaning ilmiy dolzarbligini belgilaydi.

Metodologiya. Tadqiqotning konseptual-metodologik arxitektonikasi insonparvarlik, tizimli-tuzilmaviy va tarkibiy-komponentli yondashuvlarga tayanadi. Oliy maktab ijtimoiy-pedagogik muhitida talaba-yoshlarning emotsional intellekti va transakt rol pozitsiyalarining empirik taqsimot qonuniyatlarini aniqlash maqsadida respublikamizning turli hududlarida joylashgan to‘rtta yirik davlat oliy ta'lim muassasasi talabalari jalb etildi. Tanlanmaning umumiy hajmi N=484 nafar respondentdan iborat bo‘lib, jins mezoniga ko‘ra taqsimot: 413 nafar qizlar va 71 nafar yigitlarni tashkil etdi. Yosh ko‘rsatkichlari bo‘yicha guruhlar diapazoni 17 yoshdan 23 yoshgacha bo‘lgan davrni qamrab oldi (17 yosh - 32 nafar, 18 yosh - 167 nafar, 19 yosh - 193 nafar, 20 yosh - 79 nafar, 21 yosh - 7 nafar, 22 yosh - 3 nafar, 23 yosh - 3 nafar).

Tadqiqotning instrumental apparati sifatida shaxs affektiv va sotsial-rol sohasini tashxislovchi, validligi isbotlangan quyidagi testlar majmuasidan foydalanildi:

N.Xollning "Emotsional intellektni baholash testi". Metodika yordamida emotsional intellektning 5 ta yetakchi tarkibiy qismi - Emotsional bilimdonlik, O‘z emotsiyalarini boshqarish, O‘z-o‘zini rag‘batlantiruvchi, Empatiya, O‘zga insonlarning kechinmalarini sezuvchi va integral (umumiy) ball ko‘rsatkichi o‘rganildi[2;5].

E.Bernning "Shaxslararo munosabatlarda rol o‘rinlarini aniqlash" metodikasi. Mazkur metodika yordamida talabalarning shaxslararo muloqotdagi uchta tayanch ego-holati - "Bola (p)", "Voyaga yetgan (e)" va "Ota-ona (o)" pozitsiyalarining ustuvorligi baholandi.

Empirik ma'lumotlarning taqsimot qonuniyatlari Kolmogorov-Smirnov Z-mezoni yordamida tekshirildi va xususiy shkalalarning aksariyatida normal taqsimot me'yorlaridan chetga chiqish aniqlandi ($p<0,05$). Shu sababli, olingan miqdoriy ko‘rsatkichlarni qiyosiy baholashda matematik-statistikaning noparametrik metodlaridan foydalanildi: ikki mustaqil guruh (qizlar va yigitlar) o‘rtasidagi farqlarni aniqlashda Mann-Uitni U-mezoni, bir nechta mustaqil guruhlar (yosh guruhlari) o‘rtasidagi tafovutlarni baholashda esa Kruskal-Uollis H-mezoni algoritmlari qo‘llanildi. Barcha hisob-kitoblar SPSS (Version 26.0) dasturi yordamida ishonchli amalga oshirildi.

Natijalar. Olib borilgan matematik-statistik tahlillar natijasida dastlab talaba qizlar va yigitlarning emotsional intellekt xususiyatlari va ularning tarkibiy qismlari gender prizmasida qiyosiy baholandi. Olingan statistik ko‘rsatkichlar 1-jadvalda tizimli ravishda muhrlangan.

1-jadval.

N. Holl Emotsional Intellekt metodikasi shkalalari bo‘yicha jins xususiyatlarini taqqoslash natijalari (Mann-Uitni U-mezoni)

Shkalalar	Jinsi	N	O‘rtacha ranglar	Ranglar summasi	U	p
Emotsional bilimdonlik	Qizlar	413	242,15	100010,00	14519,000	0,895
	Yigitlar	71	244,51	17360,00		
O‘z emotsiyalarini boshqarish	Qizlar	413	240,24	99219,00	13728,000	0,389
	Yigitlar	71	255,65	18151,00		
O‘z-o‘zini rag‘batlantiruvchi	Qizlar	413	238,17	91366,00	11875,000	0,032*
	Yigitlar	71	267,66	18004,00		
Empatiya	Qizlar	413	243,37	100513,00	14301,000	0,739
	Yigitlar	71	237,42	16857,00		
O‘zga insonlarning kechinmalarini sezuvchi	Qizlar	413	244,31	100900,50	13913,500	0,490
	Yigitlar	71	231,96	16469,50		
Umumiy natija	Qizlar	413	241,61	99785,00	14294,000	0,736
	Yigitlar	71	247,68	17585,00		

Izoh: p>0.05; p<0.05*

1-jadval ko‘rsatkichlarining variatsion tahlili shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellektning fundamental komponentlari hisoblangan “Emotsional bilimdonlik” (p=0,895), “O‘z emotsiyalarini boshqarish” (p=0,389), “Empatiya” (p=0,739) va “O‘zga insonlarning kechinmalarini sezuvchi” (p=0,490) shkalalarida qizlar va yigitlar ko‘rsatkichlari o‘rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Metodikaning integral ko‘rsatkichi - “Umumiy natija” shkalasi ham gender gomogenlikni tasdiqladi (U=14294,000; p=0,736).

Biroq, emotsional intellektning ongli xulq-atvorni va ichki motivatsion faollikni belgilovchi “O‘z-o‘zini rag‘batlanturuvchi” shkalasi bo‘yicha talaba yigitlar va qizlar o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farqlanish qonuniyati aniqlandi (U=11875,000; p=0,032). Yigit talabalarning o‘rtacha rang ko‘rsatkichi (267,66) qizlarnikiga (238,17) nisbatan ustun mavqega ega bo‘lib, bu shkala bo‘yicha ranglar summasi mos ravishda qizlarda 99366,00 va yigitlarda 18004,00 ni tashkil etdi. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida Turli yosh guruhlariga ega bo‘lgan talabalarni “Shaxslararo munosabatlarda rol o‘rinlarini aniqlash” metodikasi shkalalari bo‘yicha taqqoslash natijalari Kuruskal-Uollis H-mezoni yordamida qiyosiy baholandi (2-jadval).

2-jadval.

Turli yosh guruhlariga ega bo‘lgan talabalarni “Shaxslararo munosabatlarda rol o‘rinlarini aniqlash” metodikasi shkalalari bo‘yicha taqqoslash natijalari (Kuruskal-Uollis H-mezoni)

Shkalalar	Yoshi	N	O‘rtacha rang	H	p
Bola (p)	17	32	160,48	17,526	0,008**
	18	167	229,96		
	19	193	257,32		
	20	79	264,42		
	21	7	236,86		
	22	3	321,17		
	23	3	218,83		
Voyaga etgan (e)	17	32	203,88	5,206	0,518
	18	167	254,52		
	19	193	239,62		
	20	79	240,03		
	21	7	245,14		
	22	3	303,50		
	23	3	168,33		
Ota-ona (o)	17	32	224,08	4,388	0,624
	18	167	243,37		
	19	193	240,38		
	20	79	261,06		
	21	7	162,29		

Shkalalar	Yoshi	N	O‘rtacha rang	H	p
	22	3	247,67		
	23	3	220,17		

Izoh: *p<0,05;

2-jadval natijalariga ko‘ra, “Bola (p)” rol pozitsiyasi shkalasi bo‘yicha yosh guruhlari o‘rtasida statistik jihatdan yuqori darajadagi ahamiyatli farq aniqlandi (H=17,526; p=0,008**). O‘rtacha rang ko‘rsatkichlariga ko‘ra, 17 yoshli respondentlarda “bola” roliga xos xususiyatlar eng past ko‘rsatkichni (160,48) tashkil etgan bo‘lsa, 18 yosh (229,96), 19 yosh (257,32) va 20 yosh (264,42) guruhlarida ushbu ko‘rsatkichning barqaror ravishda ortib borishi va cho‘qqiga chiqishi kuzatiladi.

Shu bilan bir vaqtda, “Voyaga yetgan (e)” (H=5,206; p=0,518) hamda “Ota-ona (o)” (H=4,388; p=0,624) rol pozitsiyalarida yosh guruhlari o‘rtasida hech qanday statistik ishonchli farqlanish qayd etilmadi. Rang ko‘rsatkichlarining barcha yosh guruhlarida bir-biriga yaqinligi ushbu rollarning talabalik davrida yosh omiliga bog‘liq bo‘lmagan barqaror tabiatini ko‘rsatadi.

Muhokama. Olingan empirik-statistik ko‘rsatkichlarning ijtimoiy-psixologik va konseptual interpretatsiyasi zamonaviy talaba-yoshlar shaxsiyatining rivojlanish mexanizmlari bo‘yicha muhim qonuniyatlarni fosh etadi. N.Xoll metodikasi bo‘yicha talaba qizlar va yigitlarning umumiy emotsional intellekt darajalarida (p=0,736) va uning emotsiyalarni anglash, boshqarish hamda empatik sezgirlik kabi shkalalarida to‘liq gomogenlik (farqsizlik) holati aniqlandi. Bu holat shundan dalolat beradiki, umumiy affektiv-kognitiv salohiyat, ya’ni shaxsning o‘z va o‘zgalar hissiy holatlarini farqlash va ularga tolerant munosabat bildirish qobiliyati talabalik muhitida ijtimoiy-biologik jins omili bilan cheklanmaydi, balki yaxlit tizim sifatida parallel rivojlanadi.

Biroq, “O‘z-o‘zini rag‘batlanturuvchi” shkalasida yigit talabalarning statistik ustunligi (p=0,032) gender ijtimoiylashuvining o‘ziga xosligini ochib beradi. Psixologik nuqtai nazardan mazkur empirik fakt shuni anglatadiki, oliy ta’lim muhitining o‘quv-akademik yuklamalari va stressli vaziyatlarida yigit talabalar o‘z oldiga uzoq muddatli maqsadlar qo‘yish, ichki motivatsion impuls va psixologik energiyani mustaqil ravishda safarbar etish borasida proaktivroq mexanizmlarga tayanadilar. Ular muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasini ichki “Voyaga yetgan” resurslari hisobiga barqarorlashtirishga moyil bo‘ladilar[5]. Talaba qizlarda esa o‘z-o‘zini rag‘batlantirish motivlari ko‘proq tashqi sotsial muhit, jamoa normalari va guruh qo‘llab-quvvatlashiga bog‘liq holda modifikatsiyalanishi mumkin.

E.Bern metodikasi bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlar ushbu konseptual xulosani mantiqan yanada chuqurlashtiradi[2]. “Voyaga yetgan” (realistik fikrlash, oqilona qaror qabul qilish, vaziyatni xolis baholash) hamda “O‘z-o‘zini nazorat qilish” va mas’uliyatlilikni ifodalovchi “Ota-ona” rollarining 17 yoshdan 23 yoshgacha bo‘lgan barcha guruhlarda bir xil (farqsiz) darajada shakllanganligi (p>0,05) oliy ta’lim talabalik sotsiumida kattalar roliga moslashuv jarayoni parallel va barqaror kechishini qat’iy isbotlaydi.

Ushbu fonda faqat “Bola (p)” rol pozitsiyasining 17 yoshdan 20 yoshgacha o‘ta yuqori statistik ishonchlilik darajasida (p=0,008) keskin ortib borishi fanning yangi qonuniyatini vizuallashiradi. Transakt tahlil nazariyasiga ko‘ra, “Bola” ego-holati insonning tabiiy his-tuyg‘ulari, spontan reaksiyalari, samimiyligi, emotsional bog‘liqligi va himoyalanishga bo‘lgan ehtiyojlarining yagona manbaidir.

17 yoshli birinchi kurs talabalarida ushbu rolining eng past darajada (160,48) namoyon bo‘lishi - ularning oliygoh muhitiga qadam qo‘yishdagi o‘tkir sotsial-akademik adaptatsiya (moslashuv) inqirozi bilan bevosita bog‘liqdir. Birinchi kurs talabasi yangi ijtimoiy statusga moslashish, o‘zini jamoada jiddiy va mas’uliyatli ko‘rsatish motivatsiyasi ta’sirida o‘zining ichki tabiiy hissiyotlarini, erkinligi va spontanligini repressiyaga uchratadi ya’ni “Ichki Bolani” jilovlaydi.

19–20 yoshga kelib (2-3 kurs bosqichlarida) talabalarning sotsio-akademik adaptatsiyasi to‘liq yakunlanishi, guruh ichidagi statuslarning aniqlashishi va o‘quv tajribasining ortishi natijasida talabalarda ichki himoya mexanizmlari susayadi. Oqibatda, shaxslararo munosabatlarda emotsional ochiqlik, tabiiylik, guruhdoshlar bilan hissiy yaqinlik o‘rnatish ko‘nikmalari qayta faollashadi va bu ‘Tabiiy Bola” ego-holatining yuqori rang ko‘rsatkichlarida (257 va 264) namoyon bo‘lishiga olib keladi. Bu holat talabalik yoshining keyingi bosqichlarida shaxsning affektiv-kognitiv tizimlari muvozanatlashishidan dalolat beradi[6]. Shuningdek, talaba yigitlarda o‘z-o‘zini rag‘batlantirish motivatsiyasining ustunligi hamda adaptiv bosqichlarda “Ichki Bola” ego-holatining transformatsiyalanishi borasidagi empirik ko‘rsatkichlarimiz, muallifning talabalar sotsiumidagi attityudlar tabiati bo‘yicha olib borgan oldingi monografik tadqiqotlari natijalari bilan konseptual jihatdan uzviy uyg‘unlikni namoyon etadi [7]

Xulosa. Olib borilgan keng qamrovli empirik-statistik va konseptual tadqiqotlar yakunida quyidagi yakuniy ilmiy xulosalarga kelindi:

Zamonaviy talaba-yoshlarning integral emotsional intellekt salohiyati hamda shaxslararo munosabatlardagi ratsional-mantiqiy “Voyaga yetgan” va me’yoriy-nazorat qiluvchi “Ota-ona” muloqot pozitsiyalari jins va biologik yosh mezonlaridan mustaqil ravishda oliy ta’lim makonida gomogen (yaxlit) tizim sifatida parallel qaror topadi.

Ichki motivatsiyani barqarorlashtirish va xulq-atvorni mustaqil ongli boshqarish drayveri hisoblangan “O‘z-o‘zini rag‘batlantiruvchi” komponenti talaba yigitlarda qizlarga nisbatan statistik ishonchli darajada (p=0,032) ustuvor mavqega ega bo‘lib, bu ularning akademik distress sharoitida ichki psixologik resurslarni proaktiv safarbar etish xususiyatini belgilaydi.

Transakt munosabatlardagi “Bola” rol pozitsiyasi talabalik davrining sotsial-akademik adaptatsiya bosqichlariga ko‘ra chiziqli-dinamik transformatsiyalanadi: muassasaga moslashishning boshlang‘ich davrida (17 yosh) yangi maqomga

moslashish ehtiyoji tufayli emotsional erkinlik va spontanlik jilovlansa, barqarorlik bosqichida (19–20 yosh) guruh ichidagi hissiy hamkorlik va samimiylik ehtiyoji sifatida “Tabiiy Bola” holati proaktiv qayta faollashadi.

Olingan empirik faktlar oliy ta’lim tizimida amaliyotchi psixologlar faoliyatini rejalashtirishda talabalarning gender va yosh guruhlari kesimidagi affektiv-kognitiv dinamikasini, adaptiv inqirozlarini hisobga oluvchi gibrid va proaktiv monitoring dasturlarini loyihalash uchun fundamental metodologik zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

[1] O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-noyabrdagi “Aholiga psixologik yordam ko‘rsatish to‘g‘risida”gi O‘RQ-989-sonli Qonuni. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 06.11.2024-sh., 03/24/989/1012-son.

[2] Берн Э. Игры, в которые играют люди. Люди, в которые играют игры. – Москва: Прогресс, 1988. – 400 с.

[3] G‘oziyev E.G‘. Talabalik davrining ijtimoiy-psixologik qonuniyatlari va subyektiv “Men” pozitsiyasi. – Toshkent: Universitet, 2015. – 210 b.

[4] Baratov Sh.R. Oliy ta’lim tizimida amaliy psixologik xizmat ko‘rsatishning konseptual asoslari. – Buxoro: Durdona, 2019. – 315 b.

[5] Холл Н. Практикум по эмоциональному интеллекту. – Санкт-Петербург: Питер, 2004. – 180 с.

[6] Роджерс К. Взгляд на психотерапию. Становление человека. – Москва: Прогресс, 1994. – 480 с.

[7] Yadgarova O.I. Talabalarning psixologik xizmatga munosabati: nazariy asoslar va amaliyot: Monografiya. – Samarqand: SamDChTI nashriyoti, 2026. – 141 b.